

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI TABIIYOT FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

fakultet dekani

_____ prof P.Mirxamidova

«_____» _____ 2013

5140400 – «Biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi» bo'lim

IV kurs talabasi

Seytbekova Aziza Anvarovna

**«Teri kasalliklari va ularni oldini olish profilaktik qoidalari
» mavzusidagi**

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: «Zoologiya,

anatomiya va fiziologiya»

kafedrası mudiri

_____ b.f.h. dots. D.A.Mamatqulov

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«zoologiya, anatomiya va
fiziologiya» kafedrası mudiri

_____ b.f.n. dots.D.A.Mamatqulov

«_____» _____ 2013 yil

Toshkent – 2013 yil

Teri kasalliklari va ularni oldini olish profilaktik qoidalar

Kirish:

I – Bob: 1.1. Mavzuning dolzalbligi.....

1.2. Adabiyotlar sharxi

II- Bob: Asosiy qism:

2.1. Terining tuzilishi

2.2. Terining funksiyalari

2.3. Teri kasalliklari

2.4. Teri kasalliklarini oldini olish profilaktikasi

III. Akademik litsey va kasb – hunar kolleji o'quvchilari orasida teri kasalliklari va ularni oldini olish uchun o'tkaziladigan tadbirlar rejasi.

IV. Xulosa.

V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Mustaqil respublikamizda ta'lim – tarbiyani isloh qilish, uni rivojlantirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yoshlarga zamonaviy talablar darajasida bilim va tarbiya berish, o'quvchi yoshlar ongiga yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarni kamol toptirish xalqimizning bilim salohiyatini yuksaltirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda prazidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini aytib o'tishimiz lozim: “ Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz jamiyatimiz a'zolarini avvalom bor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbiga milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr- sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat”.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim – tarbiya, ilm-fan, kasb- hunar o'rganish soxalarini isloh qilishda nixoyatda katta zaruriyat sezila boshladi. Prizidentimiz I.A.Karimov o'zining “ Barkamol avlod orzusi” asarida bu xaqidagi quyidagi fikrlarni aytganlar “ yoshlarni zamonaviy fan – texnikasining, umuman ilm- fanning yutuqlaridan baxramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishiga sharoit tug'dirmay turib biz respublikamiz xalq xo'jaligini tubdan o'zgartira olmaymiz”.

Biz o'z istedodli, fidoyi bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak. Zamon talablariga mos mutaxasis tayyorlovchi ekanmiz birinchi navbatda o'quv yutuqlarimizning shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bo'lishi shart[6]

O'qitish jarayonining asosiy vazifasi ta'lim- tarbiya va rivojlanish birligini taminlanishi, o'qitishni faollashtirishni va iqtisodiy yondashuvli ta'limni nazarda tutadi. O'quvchilarni mustaqil bilim olishlari uchun biz ularning o'quv ishlari rejalarining bajarilishi, eng asosiysi sinfdagi va sinfdan tashqari mustaqil ishlar tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish usullarini yaratishimiz lozim. Ta'lim – tarbiya sohasidagi bunday yangiliklar bugungi kun talablarini o'zida aks ettiradi.

Prizidentimiz I. Karimov bu borada shunday deydilar: “Ta’lim – tarbiya ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin ta’lim- tarbiya tizimini o’zgartirmay turib esa biz ko’zlagan oily maqsad va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi”.

Prizident I. Karimov: “Aslida ta’lim- tarbiya sohasidagi isloxotning chegarasi yo’q. Toki hayot davom etar ekan ta’lim ham tarbiya ham zamon o’rtaga qo’yayotgan yangi- yangi talablarga ko’ra mustaqil ravishda o’zgarib, yangilanib boraveradi” deb ta’kidlab o’tganidek mustaqillik sharoitida xalq ta’limini qayta qurishning yangi modulini yaratdi. Shuni nazarda tutish joizki xozirgi davrda ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi o’quvchilarga ma’lumot va nazariy bilim berish bilan chegaralanmasdan ularni mustaqil izlanish va o’rganishga, hayot muammolarini mustaqil yechishga o’rganishdan iborat bo’lishi kerak.

Prizidentimiz I.Karimov “XXI asr bo’sag’asida xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ekalogik muammolarni bartaraf etish sohasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni bayon etib o’tgan. Unga ekalogik xavsizlikni kuchaytirishning asosiy yo’nalishlari: tegishli texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish; tabiiy zaxiralarning xamma turlaridan oqilona foydalanish; jonli tabiatning butun tabiiy genofondini madfaniy ekinlar va hayvonlarning noyob turlarini ko’paytirish xisobiga boshlang’ich ba’za sifatida saqlab qolish; axolining yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratish va ekalogik kulfatlarni jaxon jamoatchiligining etiborini qaratish kabilar bu shuning dolzarb muammosi ekanligi asarda ilmiy asoslangan. O’quvchi ularning xar biri xaqida aloxida – aloxida to’xtalishi lozim.

Dars yakunida ekalogik muammolarni hal qilishda xalqaro tuzilmalar jamg’armalar imkoniyati va investisiyalardan foydalanish zarurligi xaqida ham aloxida to’xtalish lozim.

O’zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini joriy etishning ilmiy- nazariy asoslari bo’lgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maskur tizim oldiga qator vazifalar, shu jumladan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning extiyoji va

qiziqishlarini e'tiborga olgan tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish belgilangan [10]

Maskur vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikamizda umum ta'lim fanlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga ixtisoslashgan maktablar tashkil etilgan.

Biologiya nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga ixtisoslashgan. Maktablarga o'quvchilar maskur fan asoslarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish barobarida muayyan kasblarga yo'naltiriladi. Maskur jarayonda o'quv dasturidan o'rin olgan amaliy mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi.

Prizident I.Karimovning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada mustaxkamlash" mavzusidagi ma'ruzasida qator vazifalar shu jumladan, ta'lim – tarbiya jarayonini takomillashtirish maskur jarayonning samaradorligini oshirish chora – tadbirlari belgilangan [3]

Maskur ma'ruzada "... Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz..." deyilgan.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning nafaqat jismoniy balki aqliy ma'naviy – axloqiy barkamolligini ta'minlash, ta'lim va tarbiyaning shuningdek ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari, shakllarini uyg'unlashtirish orqali ularni rivojlantirish, mustaqil, iqtisodiy, taxliliy va tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tibor qaratish lozimligi xaqida xulosa kelib chiqadi.

Ushbu vazifalarni muvafaqiyatli hal etish biologiya nazariy va amaliy jihatdan shu jumladan, amaliy mashg'ulotlarning maqsadga muvofiq tashkil etilishi bevosita va bilvosita bog'liq bo'ladi.

President I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik

jamiyatini barpo etish ustuvor maqsadimizdir” mavzusidagi ma’ruzasida qator vazifalar belgilangan bo’lib, ularni amalga oshirish uchun avvalo uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan ta’lim- tarbiya jarayonini modernizasiya qilish, o’quvchilarni DTS bilan me’yorlangan bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish barobarida ularning barkamolligini ta’minlash jarayoniga muayyan o’zgartirishlar kiritishni talab etadi [2].

2010 yil “Barkamol avlod yili” deb atalishi munosabati bilan qatoq vazifalar jumladan:[1]

- “ Sog’lom ona – sog’lom bola” dasturini izchil amalga oshirish asosida sog’lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora – tadbirlarni kuchaytirish;

- Profilaktikaga asoslangan sog’liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirish;

- Yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini tarkib toptirish, ularni turli illatlar va tuban “ ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilishga doir chora – tadbirlar ishlab chiqish;

- Ta’lim jarayoniga yangi axbarot kommunikasiya va pedagogik texnologilarni joriy etish;

- Ta’lim muasssalarining moddiy texnika ba’zasini yanada mustaxkamlash;

- DTS, o’quv dasturlari va o’quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

- Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida o’qitish sifatini tubdan yaxshilash;

- O’quvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy rag’batlantirish bo’yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish;

- Jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiya;lash belgilangan;

Maskur vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- “ Sog’lom ona – sog’lom bola” dasturi asosida talabalarning tibbiy – gigienik bilimlarini rivojlantirish, oilaviy hayotga sog’lom avlodni voyaga yetkazishni nazarda tutgan holda ma’naviy - ma’rifiy ishlarning rejalariga muayyan o’zgarishlar kiritish;

- Talabalarning salomatligini mustaxkamlash maqsadida sport musoboqalarini, mavzuli kechalar, tanlovlar tashkil etish;

- Ta'lim – tarbiya jarayonida talabalarni milliy va umumbashariy qadriyatlarga xurmar, vatanparvarlik, ma'naviy – axloqiy, gigienik, jinsiy, jismoniy, estetik, mehnatga tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish;

- O'qitishni axborot – kommunikatsiyasi va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;

- Talabalar tomonidan DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining samaradorligini oshirishga e'tibor berish;

- Uzlaksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tashkil etiladigan ta'lim tarbiya jarayonida taxsil oluvchilarning shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyani qo'llash orqali ularni har tomonlama rivojlantirishni amalga oshirish;

- Mashg'ulotlar va auditoriyadan tashqari yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tarkib toptirishni nazarda tutish;

- Yoshlarni turli illatlar va tuban "ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga doir chora tadbirlar ishlab chiqish;

Adabiyotlar taxlili

“Xalq ta’limi” jurnalining 2004 yil 4-sonida B.Qayumov, S.Mirzaxmatovalarning “Pedagogik texnologiya o’quvchilarning mustaqil tafakkurini shakllantirish omili” maqsadida o’quv faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida shakllantirish, nafaqat o’quv jarayonini samaradorligini oshirish bo’lib qolmay balki, ijtimoiy zaruriyat talabidan kelib chiqqan holda demokratik fuqarolik jamiyatining faol ishtirokchisini shakllantiruvchi omil ekanligi yoritiladi.

G.K.Se “zamonaviy ta’lim texnologiyalari” o’quv qo’llanmasidan ta’lim jarayonida qo’llaniladigan texnologiyalar jamlangan bo’lib, ularning ijtimoiy – nazariy, metodologik asoslari tasnifi va amaliyotda qo’llash mexanizmi yoritilgan.

“Pedagogik ta’lim” jurnalining 2001 yil 5- sonidagi J.Tolipovanning “Biologiya darslarida o’qitish texnologiyalaridan foydalanish” nomli maqolasi chop etilgan. Bu maqolada biologiya darslarida xamkorlikda o’qitish texnologiyalaridan foydalanish har bir o’quvchining taxsil olishda katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Hamkorlikda o’qitish texnologiyasida har bir o’quvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib keladi va guruh a’zolarininh faolligi, muloqot madaniyati ham xisobga olinadi.

Hamkorlikda o’qitish har bir o’quvchining kundalik qiziqishini aqliy mexnatga, ijobiy va mustaqil fikr yuritishga o’rganish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o’quvchida shaxsiy qadr- qimmat tuyg’usini vujudga keltirish, o’z kuchi va qobiliyatiga ega bo’lgan ishonchni mustaxkamlash, olishda ma’suliyat xissini takomillashtirishda juda katta ahamiyatga ega.

“Xalq ta’limi” jurnalining 2002 yil 3- sonida J.Tolipova va N.No’monovalarning “Ta’lim- tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik taxnologiyalarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish xaqida gap yuritiladi”.

Maqolaning ahamiyatli tomoni o’rta maxsus kasb- hunar ta’limi muassasalarida ta’lim – tarbiya jarayonida modulli ta’lim texnologiyasi,

hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish yo'llari ishlab chiqarilganligini ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning ikkinchi bosqichi ta'lim – tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axbarot texnologiyalaridan foydalanish, ularni dasturiy taminlash, uzluksiz ta'lim tizimini axbarotlashtirishni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etishni, o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish va barcha o'quv fanlari bo'yicha tashkil etiladigan darslarga zamonaviy pedagogik va axbarot texnologiyalaridan samarali va o'rnida foydalanish yo'llarini ishlab chiqarishni talab etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Odam va uning salomatligi " fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik (didaktik o'yin, muammoli, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish) texnologiyalaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb muammo bo'lmoqda.

Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal etish omillari quyidagilar:

- Odam va uning salomatligi darsining "Kamqonlik va uni oldini olish" mavzusida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkonini beradigan Respublikadagi mavjud ta'limning ta'limiy modellashtirilgan nazorat dasturlari va zamonaviy texnologiyalarni maxsuli bo'lgan darslarni tashkil etishga tegishli o'zgarishlar berish;

- Dars va o'quvchilarning mustaqil taxsili davomida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarni bilim faoliyatini tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish;

Hozirgi davrda eng muhim masala aholi sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlashdir. Mustaqil o'rinni sog'lom turmushni tashkil etishga qaratilmoqda. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish faqatgina iqtisodiy ta'minlanish jihatdan emas, balki sog'liqni saqlash insonlarni ma'naviy, ma'rifiy, madaniy saviyasini oshirishni ham taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'liqni saqlash, mustahkamlash, sog'lom turush tarzini shakllantirish masalalari yuzasidan juda

ko'p chora va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi davlat dasturini ishlab chiqdi. Dasturda axoliga tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil etish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yigit-qizlarni bo'lajak oila xayotiga tayorlash, aholiga tibbiy bilimlar berish va boshqa narsalar bayon etilgan.

Yangi jamiyatning zamonaviy tarbia konsepsiyasi inson shaxsini, ya'ni barkamol, yetuk, qo'yilgan maqsadga erkin va o'z kuchi bilan erisha oladigan yoshlarni shakllantirishga qaratigandir.

Inson hayoti, sog'lig'i eng katta ijtimoiy boilikdir. Bu oila, maktab va inson tarbiyasi, komoloti bilan shug'illanuvchi maskanlar oldiga sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasini ko'ndalang qo'yadi. Millat sog'lig'i tabiiy ravishda, sog'lom turmush tarzi orqali hal etiladi. Sog'lom turmush tarzi-bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir.

Sog'lom turmush tarzini shakllanishi aholini sog'lig'ini mustahkamlash, hayot shaklini o'zgartirish, gigiyenik bilimlar, zararli odatlar bilan kurashish, gipodinamiya va hayot situatsiyalarini noqulay jihatlari bilan kurashishdan iborat. Shunday qilib, sog'lom turmush tarzi deganda odamni har kungi tipik hayot shakli tushiniladi. Sog'lom turmush tarzi organizmni mustahkamlaydi, takomillashtiradi, o'zini ijtimoiy va kasbiy funksiyalarini takomillashtiradi.

Sog'lom turmush tarzi-inson turmush sharoitlarini faol o'zlashtirish usuli bo'lib, kun tartibiga rioya qilish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishning gigiyenik qoidalariga rioya qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish demakdir.

II- bob.Asosiy qism.

2.1. Terining tuzilishi

Odamterisibutungavdaniberkitibturuvchiqoplambo'libqolmay,balkibarchaichk
ia'zolarbilanchambarchasbog'lanibqatormuhumvazifalarnibacharadi.

Insonningsog'lig'iyurak, qontomirendokirin,
asabtizimlarifunksiyalaribilanbirqatorda, teriningxususiyatigahambog'liq.
Kattayoshdagiodamterisiningumumiysathi 1,5-2
mmqalinligitananingturlijoyidaturlichabo'lib , 0,5 mmdan 4mmgachayetadi. Gavda
og'irligining 16-18%ini,teri osti yog' qavatsiz esa 5%ini tashkil etadi. Terining
70% suv 30% oqsillar kollagen,elastin,retikulin)uglevodlar(
gulyukoza,glikogen,mukopolisaxaritlar) lipidlar,mineral
tuzlar(natriy,magniy,kalsiy) va fermentlardan iborat. Teri o'ziga hos rang va tusga
ega bo'lib,u donodor va muguz qavatlarining qalinligiga, tomirlarining yuza
joylashishiga,shu bilan birga melanin pigmrntining ko'p ozligiga qarab belgilanadi.
Terining rangi tashqi va ichki omillar tasirida o'zgarib turishi mumkun.

Terining mikroskopik tuzilishiga qarab 3qism tafovut qilinadi:

1. Epidermis-terining ustki qismi
2. Derma-asl qism .
3. Gipoderma-teri osti yog' kletchatkasi.

Epidermis-ko'p qavatli muguzlanuvchi epiteliylardan tashkil topgan va ular
bir-biridan xujayralarning shakli,tuzilishi bilan farq qiladi.Epidermisda quyidagi
qavatlar bo'ladi:

A)bazal qavat-teri ustki qisming eng chuqur qavati bo'lib, pastdan derma
bilan chegaralanib, yirik,yaxshi bo'yaladigan o'val yadro'li bir qator silindir simon
hujayralardan tashkil topgan. Yadrolari xromatinga boy sitoplazmasi bazofil

xususiyatga ega. Hujayralar oraliqlarida kichik tirqishlar bo'lib ularda to'qima suyuqligi harakat qiladi.

Bazal qavat hujayralari uchki qismida melanin pigmenti donachalarini tutadi. Pigment donachalarini saqlovchi bunday hujayralar-melanositlar deb yuritiladi. Melanositlar gemotoksinli eozin bo'yog'i bilan yaxshi bo'yalib, sitoplazmasi och bazofil, yadrosi to'q rangga kiradi. Melanin pigmenti melanositlar sitoplazmasida tirozinaza fermentining tirozinga ta'sirida, ya'ni uning oksidlangan maxsulotlarini polimerizatsiyalash natijasida yuzaga keladi. Melanosit ichidagi melanin pigmenti shu hujayra o'simalari orqali bazal qavat hujayralariga o'tadi.

Melanin pigmenti hosil bo'lishida A va C vitaminlarining ahamiyati katta. Melanin pigmenti organizmni nurlarning zararli ta'siridan saqlaydi. Ma'lumki, oftob ta'sirida terida pigment to'planib, badan qorayadi. Bu esa organizmning o'ziga xos himoya reaksiyasi bo'lib, hujayralarning yadrolarini, shuningdek, chuqurroq joylashgan hujayra hamda to'qimalarni ultra binafsha nurlarning kuchli ta'siridan himoya qiladi. Melanin pigmenti yetishmasa terida har xil kattalikdagi gipopigmentli yoki depigmentlangan dog'lar paydo bo'ladi.

B) Tikansimon qavat- bazal qavat ustida joylashgan 5-10 qator kubsimon hujayralardan iborat bo'lib, donador qavatga yaqinlashgan sari u yassilanib boradi. Tikansimon qavat hujayralari protoplazma o'siqchlari bilan bir-biriga tutashgan bo'lib, ular hujayralararo ko'priklar deb ataladi. Bu hujayralar sitoplazmasida tonofibrillar yaxshi rivojlangan ularning uchi desmosomalar (o'siqchalar)ga ulanib ketadi.

Donador qavat. Bu qavatning donador deyilishiga sabab hujayralari o'z sitoplazmasida ishqoriy anilin bo'yoqlari bilan yaxshi bo'yaladigan keratogialin moddasidan tashkil topgan donachalar tutishidir. Donador hujayralar 2-3 qavatdan iborat. Ular zich joylashib, teri sathiga parallel yotadi. Hujayralarning yadrosi oval, ancha kichik, ba'zilarida yadro bo'lmaydi. Sitoplazmadagi donachalar tuzilishi jihatdan DNKga yaqin turadi. Mana shu qavat tufayli teri o'ziga xos rangda bo'ladi.

Yaltiroq qavat –donador qavat ustida joylashgan bo'lib uni muguz qavatidan ajratib turadi.Bu qavat 1-3 qator yassi cho'zinchoq hujayralardan tashkil topgan, ularning deyarli hammasida yadro bo'lmaydi.Hujayralar yadrosida eleydin oqsillar bo'lad. U nur sindirishda katta ahamiyatga ega. Epidermisning yaltiroq qavatida eleydin moddasidan tashqari glikogen, lipoidlar,yog' va olein kislotalari ham bor.

Muguz qavat-epidermisning eng yuqori qavatini bo'lib,3-4 qator yassi hujayralardan tashkil topgan.Hujayralarda yadro bo'lmaydi,ularning qalinligi terida turlichadir. Bu hujayralar terida keratin tutadi,ularga to'q qo'g'ir rangli alohida bo'yoq muguz qatlam yog'i singigan, u yopishqoq bo'ladi shuning uchun bu hujayralar bir-biriga zich taqalib turadi.

Muguz qavatining eng yuqori yuza qismida plastinkalar zich turmaydi,ular asta sekin ko'chib, fiziologik po'st tashlash yuz beradi.Shunday qilib, epidermis qavatini hujayralari uchun keratinizatsiya jarayoni maxsus funksiyalardan biri hisoblanib,hujayralar yadrosi,ogonoidlar dezintegratsiyalanadi va muguzlanish bilan yakunlanadi.

Derma – terining asl yoki xususiy qavatini bo'lib,bazal membrane ostida yumshoq chegaralanmagan biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan.Dermada bir-biridan unchalik ajralmagan 2qavat tafovut qilinadi:

1) So'rg'ichsimon qavat – bevosita epidermis tagida joylashib,unga o'zining so'rg'ichlari bilan botib kirgan holda turadi.So'rg'ichsimon qavat deganda epidermisdan to yuza tomirlarning to'r qismigacha bo'lgan joy tushiniladi.So'rg'ichlarning kattaligi va uzunligi har xil. Qo'l va oyoq kaftlarida 200-300mk bo'lsa yuz,peshona terisida juda qisqa (25-30mk) bo'ladi.So'rg'ichlar uzunligi yosh ulg'ayishi bilan qisqarib boradi.

2) To'rsimon qavat-zich biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan bo'lib unda yo'g'onligi va yo'nalishi har xil kallagen tolalar to'r hosil qiladi.Elastik tolalar bir-biriga chirmashib,kallagen tolalar bilan bir xil yo'nalish oladi va to'r hosil qiladi.Shu bilan birga dermada o'ziga xos pigmentli hujayralar-melanofaglar ham

bor. Terining asl qavatida soch ildizi,yog' bezlari,mimika muskullari,teri osti yog' qatlami bilan chegaradosh qismida esa ter bezlari joylashgan.

Gipoderma- teri osti yog' qatlami.Derma aniq chegarasiz teri osti yog' qatlamiga o'tadi. Bu qatlam yog' hujayralari to'plamidan iborat bo'lib,ular asl teri qavatining to'r qismidan davom etgan va teri fatsiyasini hosil qiluvchi kallogen tolalarning katta tutamlari bilan o'ralib tiradi.

Teri osti yog' qatlami odamning tanasini har xil mexanik ta'sirlardan saqlaydi,u organizm uchun yog' manbai hisoblanib,haroratni mo'tadil ushlab turishda ishtirok etadi.

2.2. Terining funksiyalari

Teri va tashqi shilliq qavat odam organizmini tashqi muhitning noqulay omillari ta'siridan himoya qilish bilan birga ko'plab boshqa vazifalarni ham bajaradi.Teri va teri ortiqlari,nerv tolalari,qon tomirlari va linfa sistemasi butun organizm hamda uning a'zolari bilan chambarchas bog'langan. Teri tashqi muhitning (ekzogen) ta'sirlarini sezibgina qolmay,balki organizmda joylashgan barcha a'zoldagi patologik o'zgarishlarga ham o'z vaqtida javob reaksiyasi bilan bekgi beradi. Teridagi katta salbiy o'zgarishlar esa o'z navbatida ichki a'zolar funksiyasini buzilishiga olib keladi. Teri,jumladan,oqsil,uglevod,yog',suv, mineral moddalar,vitaminlar almashinuvida va boshqa xilma xil funksiyalarni bajarishda qatnashib,organizmning yaxlit anatomik-fiziologok qismini tashkil etadi.

1.Himoya funksiyasi.Terijuda elastik bo'lganligi hamda o'zining qalin gipoderma qatlami hisobiga organizmni tashqi mexanik ta'sirlardan birinchi bo'lib saqlaydi.

Muguz qavat hujayralari issiqni yomon o'tkzadi va shuning hisobiga organizmning chuqur qatlamlarini qurib qolishdan saqlaydi.

Teri yuzasining muhiti kislotali bo'lganligi sababli, u patogen mikro organizmlar ta'siridan saqlaydi va muguz qavati hujayralarini elektr urishidan himoya qiladi. Melanositlar ishlab chiqaradigan melanin pigmenti ultra binafsha

nurlarini o'ziga yutib, uning zararli ta'siridan asraydi. Qora tanli odamlar shuning uchun quyosh nuriga chidamli bo'lishadi.

Teri yuzsiga teri bezlaridan ajralib chiqadigan sekretlar muhim bakteriosit funksiyasini bajaradi, ya'ni bunday muxitda mikro'blar o'ladi. Teri hujayralari mugulanishi natijasida tangachalar bilan minglab mikro organizmlar tashqariga tushib ketadi.

2. Teri sezgi organidir unda og'riq, tegish, issiq va sovuqni sezish kabi 4ta sezgi farqlanadi. Og'riq teining epidermis qismidagi erkin nerv tolalari orqali seziladi va emotsional o'zgarish bilan yuzaga keladi. Emotsional o'zgarish og'riqning o'tkir, sanchuvchan, bosimli, cho'ziluvchan bo'lishiga bog'liq. Og'riq o'tkir bo'lganda organizmning himoya reaksiyasi oldinga chiqadi. Ba'zan terining arziyas ekzogen ta'sirida og'riqni sezish qobiliyati oshib ketadi-bu giperalgeziya va giperpatiya deyiladi. Og'riqni sezishning pasayib ketishi esa gipoalgeziya deyiladi. Odam tanasining issiq yoki sovuqni sezishi uning hayotida juda katta ahamiyatga ega, hatto sezish orqali butun tana harorati moslanadi. Issiqni Ruffini tanachalari, sovuqni esa Krauze kolbalari boshqarib turadi. Issiqni sezuvchi tanachalarga nisbatan sovuqni sezuvchilari ko'proq.

3. Terining termoregulyatsion funksiyasi. Butun tanadagi issiqlikni markaziy nerv sistemasi boshqarib turadi. Bu jarayonda teri katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, tanadan 80%dan ortiq issiqlikni teri orqali chiqariladi. Issiqlikni ajratish teridagi qon tomirlari, ter bezlari holatiga chambarchas bog'liq. Sog'lom odamning tana harorati har qanday bo'lishiga qaramay deyarli bir xil darajada (36,5-36,7C) turadi. Odam bir kunda 0,8 l ter ajratib, ayni vaqtda 2,1MDJ (500 kkal) energiya yo'qotadi. Bir kecha kunduzda teri miqdori 3-4 lga yetadi ba'zan bundan ham ortadi.

4. Terining sekretor va ekskretor funksiyasi. Terining bu faoliyati undagi yog' va ter bezlari ishlab chiqargan ter yog'i, terini moylab turishi bilan birga uning butunligi, elastikligi va suv o'tkazmasligini taminlaydi. Yog' bezlari ekskretor vazifasini ya'ni organizmdan ba'zi dori moddalar (yod, bron, salitsilat kislata) va zaharli maddalarni chiqarib yuborish funksiyasini bajaradi. Terida sekretor va

ekskretor funksiyasini ekkrin va apokrin ter bezlari ham bajaradi. Tashqi muhitga teri bilan birga issiqlik hamda mishyak, simob, xinin, yod, brom, qand va boshqa moddalar chiqarib turiladi. Ekkrin teri bezlari ajratgan ter kislatali muhitga ega, zichligi 1,004-1008 ga teng, tarkibining 98-99%ini suv, 1-2%ini unda erigan anorganik birikmalar, jumladan, fosfat, sulfat, osh tuzi, kaltsiy tuzlari, organik muksulotlar (siydik kislota, kreatinin, ammiak) va uglevodlar tashkil etadi. Apokrin ter bezlari sekretida glikogen, xolistilin va emir bor, ular neytral muhitga ega bo'lib endokrin va jinsiy bezlarning faoliyati bilan uzviy bog'liq. Asab, ruhiy holat, cho'chish, hayajonlanish, qo'rqishlar normal teridan ko'p ter ajralishiga sabab bo'lishi mumkin.

5. Terining moddalar almashinuv funksiyasi. Odam organizmdagi ba'zi moddalar almashinuvi faqat terida kechadi. Bunga muguzlanish moddasi bo'lgan keratin, melanin va D vitamini sintezi misol bo'ladi. Teri suv, minerallar, yog', oqsil va uglevodlar, shuningdek, garmon, ferment, vitamin va mikro elementlar almashinuvida ishtirok etadi.

Terining vitaminlar almashinuvidagi roli katta ahamiyatga ega. C vitamini teri pigmenti-melanin hosil bo'lishida hamda glyukozaning glikogenga aynishida, A vitamini epidermisning muguzlanishida ishtirok etadi. A, D, E-vitaminlari teridagi oqsillarning o'zlashtirilishini va oltingugurtning qabul qilinishini tezlashtiradi, C vitamini yetishmasligi shilliq qavatning zararlanishiga, lavsha (singa) hastaligiga, A vitamini tanqisligi- ixtiyoz, kseroderma, vulgar, xusunbuzar va tirnoqlar distrofiyasiga olib keladi.

6. Terining nafas olish va rezorbsiya funksiyasi. Terining nafas olishdagi ixtiroki unchalik katta emas, odam yutadigan kislorodning 1/180 qismi, ajratadigan karbonat angidridning 1/90 ulushi teri orqali ro'y beradi. Teri gazlar almashinuvining 1%da ishtirok etadi.

7. Terining markaziy asab tizimi faoliyati bilan bog'liqligi. Dermatozlarning kelib chiqishida markaziy asab tizimidagi ko'pgina markazlar hamda simpatik asab tizimining roli kattaligi xususida A. G. Polotebnev, A. I. Pospelov va

boshqalarni fikirlari mavjud. Asab tizimi faoliyati tufayli tashqi muhitdagi ekzogen va endogen ta'sirlarga organizm teri bilan hamkorlikda javob reaksiyasini beradi.

2.3. Teri kasalliklari

Keyingi vaqtlarda axoli o'rtasida teri kasalliklari tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa yosh bolalar bu dardga ko'proq moyildir. Teri kasalliklarining kelib chiqishi, kechishi va turlari xilma xil bo'lib, ularni sharli ravishda 2guruhga bo'lish mumkin, bular;

- organizmning umumiy kasalligi tufayli terida bo'ladigan o'zgarishlar va
- terining o'zida bo'ladigan kasalliklardir.

Birinchi guruhga tegishli kasalliklarda, masalan zaxm, ayrim yuqumli kasalliklar (qizamiq, skarlatina), allergiya kabilarida terida xilma xil o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

Ikkinchi guruhga kiradigan teri kasalliklari ham turli tumandir. Bularning kelib chiqishi va davosi xilma xil. Bularga terining yiringli kasalliklari (piodermia), zamburug' kasalliklari (temiratki, trixofitiya) shuningdek yuqumli kasalliklar kiradi.

Terining yiringli kasalliklari yoki piodermitlar (yunoncha pyon- yiring, derma –teri) eng ko'p uchraydigan kasalliklar qatoriga kiradi.

Aksariyat terining yiringli kasalliklari surunkali kechib, tez- tez qaytalab turadi va uzoq vaqt davolanishni talab qiladi. Bolalar dermatologiyasida ham piodermitlar salmoqli o'rin egallaydi. Barcha dermatozlar orasida u 25-60%ini tashkil etadi.

Etilogiyasi ; Terida yiring paydo qiluvchi mikroblar- stafilokokk va streptokokklar, pnevmokokklar, ko'k yiring tayoqchasi va ichak tayoqchasi tushishi sabab bo'ladi.

Patogenezi: Terida yiringli kasallik kelib chiqishida, avvalo, mikro organizmlarning patogenligi va virulentligi ahamiyatga ega, ammo ularning terida rivojlanib ketishi uchun ma'lum bir shart- sharoitlar zarur. Bular terining himoya funksiyasi va piokokklarga nisbatan organizmning qarshilik ta'sirini susaytirib yuboradigan ekzogen va endogen sabablardir.

Ekzogen sabablar:

1 teridagi yuza mayda - yara - chaqalanish- tiralish,qirqilish, kuyish.

2.terining haddan tashqari ifloslanishi, oddiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik.

3. sovuq yoki issiq urishi.

4. kasb bilan bog'liq omillar (ko'mir, oxak, sement, neft,mahsulotlari bilan ishlash)

5. yosh bolalarni noto'g'ri kiyintirish (sun'iy toladan tikilgan kiyimlar bilan qalin qilib o'rab chirmash)

6.teri muhitining (pH) o'zgarishi

Endogen sabablar:

1. uglevodlar almashinuvining buzilishi (giperglikemiya),gipofiz hamda qalqonsimon bez faoliyatidagi yetishmovchiliklar.

2.asab tizimi faoliyatidagi funksional buzilishlar (nevrozlar)

3.organizm tomonidan oqsil o'zlashtirilishining buzilishi (gipoproteineniya)

4.me'da ichak tizimi faoliyatining funksional buzilishi(jigar, me'da ichak kasalliklari)

5. gipovitaminozlar (ayniqsa A va C)

6. irsiy omillar

7. organizm immune mexanizmining buzilishi va boshqalar.

Kiyingi yillarda antibacterial preparatlarni haddan tashqari ko'p ishlatish ko'pgina mikro organizmlar, jumladan stafilakokklar streptakokklarning ba'zi biologik xususiyatini (antigenlik, immunagenlik,verulentlik) o'zgarishga olib keladi. Bu jarayon terida kasallik paydo qilmaydigan mikroorganizmlarning (epidermal stafilakokk) patogenlik tomonga siljishiga sabab bo'lib, ular tez-tez qaytalab turadigan terining turli yiringli kasalliklarini kaltirib chiqarmoqda.

Chipqon: furunkul- soch haltachsi va atrofidagi to'qimaning o'tkir yiringli – nekrotik yallig'lanishi. Chipqon terining yiringli kasalliklar ichida eng ko'p uchraydigani bo'lib, uni stafilakokklar qo'zg'atadi.

Dastlab soch tolası follikulasi sohasida teri damidan bir oz ko'tarilib turadigan, dumaloq, konussimon tuguncha shaklida qattiq yallig'langan infiltrat paydo bo'lib, bezillab og'riydi, qizaradi, asta-sekin kattalashadi.

Kasallikning 3-4 kuniga kelib, chipqonning kattaligi 1-3 sm yetadi, uning o'rtasida yiringli-nekrotik o'zakli pustula paydo bo'ladi. Chipqon konussimon shaklni oladi, qizg'ish-ko'kimtir tusga kirib, yaltirab turadi. O'rtasidagi pustula sohasida nekroz rivojlanadi. Bu davrda bemorning harakati cheklanib, darmoni quriydi, harorati (37-38C) ko'tariladi, chipqon lo'qillab og'riydi, keyin o'z-o'zidan yoki biror ta'sir tufayli yoriladi. Undan sarg'ish, ba'zan qon aralash quyruq yiring chiqadi. Yiring chiqib bo'lgach, yara ichi chuqur bo'lib qoladi, uning tagida chipqon "O'zagi" ko'rinadi. Nekro'tik o'zak ajralgach, shish va og'riq keskin kamayadi. Rara o'zagi chiqqandan so'ng, uning o'rni chandiqlanib bitadi.

Terida kasallik keltirib chiqaradigan zamburug'lari tog'risida ilk ma'lumotlar Y. L. Shyonlyayn nomi bilan chambarchas bog'liq. U birinchi bo'lib zamburug'lar ayrim teri kasalliklariga sababchi bo'lishini isbotlab berdi. Keyinchalik olimlar qushlar hayvonlar va odam organizmidagi patologik materillardan zamburug'larni topa boshlashdi.

1884-yildan boshlab odam va hayvonlarda zamburug'lar qo'zg'atadigan barcha kasalliklar "mikozlar" deb atala boshlandi. Terining zamburug'li kasalliklarini o'rganuvchi fan esa "mikologiya" deyiladi.



Zamburug'larning morfoloqik xossalari. So'nggi yillarda mikologiya fanining rivojlanishi va zamburug'lr sitologiyasi, kimyoviy tarkibi, irsiyati va boshqa hususiyatlari tog'risida yangi ma'lumotlar yg'ilishi natijasida ularning tirik organizmlar olamidagi sistematik o'rni ham o'zgarib borgan holda mumkin qadar chuqurroq aniqlanayapti.

Zamburug' kasalliklarining paydo bo'lishida unga moyillik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun dermofitiya bilan asosan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, chaqaloqlar hamda 3yoshgacha bo'lgan bolalar ko'pincha kandidoz bilan og'riydilar. Zamburug' kasalliklarining paydo bo'lishiga gipo va avitaminoz, disbakterioz, ko'p terlashlik, xavfli o'sma, qon kasalliklari, OITS, turli yaralar va surunkali kasalliklar, antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish, xromikoz va boshqa omillar ham sababchi bo'ladi. Patogen zamburug'lar keltirib chiqargan kasalliklar joylashishi, patogenezi va klinik di.

Birinchi guruhga- yuzaki mikoqlar yoki keratomikoqlar rang – barang temiratki, eritrazma va oq pyedra kiradi.

Ikkinchi guruhga- dermatomikoqlar kiradi, bularda teri, tirnoqm, soqlar shikastlanadi. Bularga oyoq-panja va chov epidermofitiyasi, trixofitiya mikroskoriya kiradi.

Uchinchi guruhga- Teri va shilliq qavat kadikoqlari kiradi

To'rtinchi guruhga- chuqur mikoqlar kiradi. Bularda ichki a'zo va turli to'qimalar shikastlanadi.



Terining parazitlar kasalliklari. Parazitlar qo'zg'atadigan kasalliklar dermatozoonozlar deyiladi. Ularga kanalar, bitlar, burgalar, taxta kanasi va boshqalar kiradi. Oziqlanish maqsadida ular odamni chaqadi, ayniqsa, qo'tir kanasi bemor terisining muguz qavatida joylashib olgancha oylab yashaydi. Boshqa parazitlar chaqqanida so'lagi terini ta'sirlab, mahalliy yoki umumiy allergik reaksiya qo'zg'atadi. Teri kasalliklari mutaxassis amaliyotida qo'tir va bitlash kabi kasalliklar muhim o'rin tutadi. Ularning qo'zg'atuvchilari bemordan sog' odamga to'g'ridan-to'g'ri, hatto qo'l berib

Bitlash. Bitlar odam va sut emizuvchi hayvonlarda uchraydigan qon so'rar ekzo parazitdir. Iga yopishib, qichitadigan so'lak chiqaradi. Odamda bosh biti, kiyim biti va qov biti uchraydi.

Bosh biti to'g'ridan-to'g'ri bosh kiyimi va ko'pa -to'shak, ba'zan soch oldirilganda yuqib qoladi. Urg'ochi bit o'zining 1-1,5 oylik hayoti davrida 100-150 taga yaqin sirka qo'yadi va sochga mahkam yopishib oladi. Bosh biti bir kecha - kunduzda 2-3 marta qon so'radi. Oziqsiz ko'pi bilan 7-10 kun tirik turadi; ularning harakati havo haroratiga bog'liq, masalan: 25-27C da 20-30sm o'rmalab borishi mumkin.



2.4 Teri kasalliklarini oldini olish profilaktikasi

Terining yiringli kasalliklari aholi moddiy farovonligi va madaniy sanitariya darajasini belgilovchi mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich past bo'lgan joylarda piodermitlar keskin ko'payib ketadi. Piodermitlarning profilaktikasi davlat miqyosida katta ahamiyatga ega, chunki bu dardlar barcha teri kasalliklari oradida birinchi o'rinda turadi va bemorlarning mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotib qo'yishiga olib keladi. Yiringli kasalliklarni oldini olishda umumiy sanitariya-gigiyena qonun-qoidalariga beqamu ko'st amal qilish kerak.

Terining yiringli kasalliklariga moyil bo'lganlarni aniqlab, ularga ta'sir qiladigan kasbga aloqador omillarni o'rganish va o'z vaqtida bartaraf etish lozim. Ishga qabul qilishdan oldin xodimlarni maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkazish zarur. Ko'mir konlari,neft mahsulotlarini qayta ishlashkorxonalari,metallurgiya, mashina qurilishi va kimyoviy zavodlarda ba'zi bir surunkali dermatozlarga chalingan bemorlarning (neyrodermit,ekzema,qizil yassi temiratki) ishga yaroqligini belgilovchi maxsus sanitariya guruhleri tuzilib, ular muntazam ishlab turishini ta'minlash lozim. Sanitariya guruhleri ishchi- xizmatchilarning ish joyi toza bo'lishini, ularningmaxsus kiyim- kechak va turli anjomlar bilan ta'minlashini kuzatib borishlari zarur.Ayniqsa, chuqur yer ostida ishlovchi shaxtiyorlar, issiq sex ishchilari, metallurklar va oynasozlar piodermiyaga ko'p chalinishadi.

Piodermiyaning avj olishida mikrotravmalar asosiy sababchi ekanligini nazarda tutib,terining zirapcha kirgan, tinalgan, shilingan va yorilgan joylariga zudlik bilan dezinfeksiyalovchi eritmalar (2%li brilliant yashili yoki 2-5%li yod)surtish lozim.

Yosh bolalar piodermiya bilan og'rishga ko'roq moyil bo'lganlari uchun bemorlarning sog'lom tengdoshlari bilan yurishiga yo'l qo'yilmaydi;piodermiyaga chalinganlar ajratib qo'yiladi. Bolalar bilan muntazamishlaydigan xodimlar,doimo profilaktik ko'rikdan o'tib turishlari lozim.

Qo'tir. Odam va hayvonlarning yuqumli kasalligi. Kasallikni qo'tir kanallari *Sarcoptes scabiei* qo'zg'atadi. Qo'tir kasalligi odam terisining ayniqsa, tungi qattiq qichishishi tufayli ko'proq namoyon bo'ladi.

Kasallikning oldini olish va profilaktikasi. Kasallik borligi aniqlanganda maxsus xabarnoma to'dirilib, tegishli joylarga yuboriladi. Xasta bola batamom tuzalib ketmagunicha uni sog'lom tengdoshlari safiga qo'shilmaydi.

Bemorning ichki va ustki kiyimlari, ko'rpa-to'shaklari, ishlatgan asbob-anjomlari, o'yinchiqlari dezinfeksiya qilinishi zarur. Dezinfeksiya maxsus nam kameralarida bajariladi. U bo'lmagan taqdirda kiyim kechaklarni qaynatib, yaxshilab qaynatib, yaxshilab dazmollash zarur. Ko'rpa-to'shaklarni oftobga yoyib, har kuni bir necha marta orqa-o'ngini ag'darib turish lozim.

Keratomikozlar. Yuzaki zaburug'li kasalliklar yuqumli bo'lib tez tarqaladi hamda yallig'lanishsiz kechish bilan ifodalanadi. Keratomikozlarga rang-barang temiratki yoki kepaksimon temiratki va eritrazma kiradi.

Davosi. Muguz qavatining zamburug'lar o'rnashib olgan yuza qismini ko'chirib tushirish maqsadga muvofiq. Buning uchun zararlangan joyga har kuni yashil sovun, Vilkinson mazi, 10%li salitsilat spirit eritmasi, 10-20%li oltingugurt moyi, 10%li oltingugurt va 5%li salitsilat moyi aralashmasi surtiladi. Shuningdek, bir hafta mobaynida 60%li giposulfit eritmasi va 6%li xlorid kislotasi eritmasini ketma-ket surtish yaxshi natija beradi. Kasallik qaytalamasligi uchun davolangan joylarni bir necha hafta mobaynida kuniga 1 mahal 2% salitsilat spirt bilan artib turish tavsiya etiladi, lamizil malhami 2 hafta davomida kuniga 1-2 mahal surtiladi.

Dermatomikozlar. Chov epidermofitiyasi. Kasallikni Epidermophyton ingiunale zamburug'lari paydo qiladi.

Klinikasi. Sonning ichki yuzasida kattaligi tangadek keladigan pushti qizil rangli dog'lar paydo bo'ladi. Dog'larning cheti teri sathida bolishga o'xshab ko'tarilib turadi, ularning yuzasida mayda-mayda pufakchalar, pustulalar bo'lib, markazida esa kepaksimon tangachalar ko'rinadi. Dog'lar yirik o'choqlar hosil qilib, bir-biri bilan qo'shilib ketishga moyil bo'ladi. Ular periferiya tomon o'sa borib, o'rtasi oqara boshlaydi va halqasimon yoki marjon shaklini hosil qiladi.

Davosi. Kasallik o'choqlariga 1-2% yod eritmasi, 3-5% li oltingugurt, qoramoy malhamini surtish tavsiya etiladi. Jarayon o'tkir kechganda 0,25% li kumush nitrat, 1-2%li rezorsin, 2%li borat kislotasi eritmasi bilan bir qatorda umumiy davo qilinadi, ya'ni 10%li kalsiy xlorid eritmasi, dimedrol yoki boshqa antigistamin preparatlar terapevtik dozalarda tavsiya etiladi.

Bitlash. Bosh biti davosi. Sochni olib tashlash, boshning sochli qismi terisidagi sirkalar xitinini eritish uchun 3% li sirka eritmasidan foydalanish tavsiya etiladi. Sirkalarni yo'qotish uchun iste'mol sirkasini iliq qilib boshga surtiladi va mayday tishli taroq bilan taraladi. Ba'zan 10%li benzilbenzoatning suv – sovunli eritmasidan ham foydalanish mumkin.

Bitlashning oldini olish va profilaktikasi. Bitlashning oldini olish, asosan, aholining moddiy farovonligi va madmniyatini oshirishga qaratilgan chora – tadbirlar ishlab chiqilgan holda uni hayotga tatbiq etishdan iborat. Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, choyshab, ichki kiyim, ko'rpa-to'shak jildlarini har haftada almashtirib turish, kiyimlarni dazmollab kiyish, birovlarining o'rniga yotmaslik va boshqalarga amal qilish zarur.

III. Bob. Akademik litsey va kasb – hunar kolleji o'quvchilari orasida teri kasalliklari va ularni oldini olish uchun o'tkaziladigan tadbirlar rejasi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida odam va uning salomatligi fanidan "Teri shikastlanganda birinchi yordam berish" mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Ta'lim jarayonining muvoffaqiyatli, o'quvchilarning ilmiy saviyasi va pedagogik mahoratning yuqori darajada bo'lishi, zamon bilan hamnafasligi, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalariga bog'liq bo'ladi. Ushbu mavzuni chuqur o'zlashtirish maqsadida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalandim. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy xususiyati o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida, fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda, o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vabilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan, shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi. Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish darajasini o'rttirish, ko'nikmalarini malaka darajasiga yetkazish maqsadida qo'llanilib, unda o'quvchi mantiqiy operatsiyalar yordamida o'quv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, ma'lumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Muammoli – amaliy metoddan foydalanganda muammoli topshiriqlar tuziladi, shu asosda tajribalar o'tkaziladi, muammoli vaziyatlarni xal etsih yuzasidan o'quv vazifalarini hosil qilinadiva o'quv tadqiqot tajribalari o'tkazilib, o'quv xulosalari va umumlashmalarini ta'riflab muammolar xal etiladi.

Muammolarni hal etishda o'qitishning mantiqiy metodlari guruhiga mansub induktiv, diduktiv, taxlil, bosh g'oyani ajratib qiyoslash, umumlashtirish metodlaridan ham foydalaniladi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlaridan: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarini nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi mavaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi.

O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi zarur:

1.O'quv dasturi bo'yicha qaysi manzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini belgilash;

2.Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;

3.O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash.

Muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslangan "Aqdiy hujum" darsi quyidagicha tashkil etiladi:

O'qituvchi dastlabki bosqichda psixologik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilardan teng sonli kichik guruxdarni shakllantiradi.

Keyin kichik guruhlarga muammoli savollardan iborat bo'lgan o'quv topshiriqlarini tarqatib, ularni topshiriqning didaktik maqsadi bilan ganishtiradi.

O'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini o'quv muammolarini hal etishga yo'naltiradi.

O'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha axborot-larini tinglanadi.

Savollarga turli javoblar berilgan paytda kichik guruxdar o'rtasida o'quv bahsi va munozara o'tkaziladi.

O'qituvchi kichik guruxlarning bergan javoblarni umumlashtirib umumiy xulosa yasaydi.

"Aqliy hujum"da o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqdiy faoliyat usullarini egallaydi.

O'quvchilarning bilish faoliyatining bu tarzda tashkil etilishi ularda ijodiy faoliyatni garkib toptirishga imkon yaratadi.

Teri shikastlanganda birinchiyordam berish mavzusini muammoli ta'lim metodi orqali o'zim pedagogik amaliyot o'tagan Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti qoshidagi 2-son Akademik litseyning 2-kurs talabalarida tajriba o'tkazdim.

Dars ishlanma.

Darsning mavzusi: Teri shikastlanganda birinchi yordam berish.

Darsning ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga teri timdalanganda, qirilganda, terining turli sohalaridan qon ketganda, teriga kislota to'kilganda, turli darajada kuyganda va sovuq urganda, sovqotganda, issiq va oftob urganda birinchiyordam berish haqida tushuncha hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'quvchilarga terining turli sohalari jarohatlanganda birinchiyordam berish haqida tushuncha berish orqali insoniylik, bir-biriga yordam berish, bir-birini hurmat qilish kabi xususiyatlarini kuchaytirish, gigiyenik, estetik tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarga terining turli sohalari jarohatlanganda birinchiyordam berish haqida tushunchs berish orqali ularning mustaqil fikrlash, shoshilich vaziyatlarda o'zini tuta bilish va biribchiyordam ko'rsata olish, ehtiyotkorlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Terining turli sohalari jarohatlanganda birinchiyordam berishni ifodalovchi ko'rgazma qurollar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Muammoli ta'lim texnologiya (kichik guruhlarda ishlash metodi).

Asosiy tushuncha va bilimlar: Teri timdalanganda, qirg'ilganda, terining turli sohalaridan qon ketganda, teriga kislota to'kilganda, turli darajada kuyganda va sovuq urganda, sovqotganda, issiq urganda birinchi yordam berish.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzuni test savol-topshiriqlari yordamida aniqlash va o'quvchilarni baholash.

1. Organizmga ta'sir etayotgan chiniqtiruvchi omil uzluksiz har kuni yoki kunora takrorlanishini chiniqtirishning qaysi prinsipiga misol bo'ladi.

A) asta –sekinlik B) o'z-o'zini nazorat

D) izchillik E) individullik

2. Qaysi chiniqtirishda o'z-o'zini nazorat prinsipi kuchli bo'lishi kerak?

A) havodachiniqtirish B) quyoshda chiniqtirish

D) suvdachiniqtirish E) suvda va havoda chiniqtirish

3. Havoda chiniqtirishning ikkinchi bosqichida ochiq havoda qancha vaqt turish lizim?

A) 10 minut B) 15 minut

D) 15-20 minut E) 10-20 minut

4. Bir kecha kunduzda teri yuzasida qancha epidermis hujayralari chiqindisi hosil bo'ladi?

A) 5-10 g B) 10-15 g

D) 10-20 g E) 15-20 g

III. O'quvchilarni darsning mavzusi, maqsadi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'llash

IV. Yangi mavzuni o'rganish.

a) o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratish va savol topshiriqlarini tarqatish;

b) o'quvchilarning faoliyatini kichik guruh topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'llash

1-guruh uchun topshiriq:

Teri timdalanganda, qirilganda, tilinganda va terining turli sohalaridan qon ketganda qanday birinchiyordam ko'rsatilishi haqida so'zlab bering va amalda ko'rsatib bering

2-guruh uchun topshiriq

Teri kuyganda va kislota to'kilganda qanday birinchiyordam berishni tushuntiring va amalda ko'rsating.

3- guruh uchun topshiriq:

Issiq va oftob urganda qanday birinchiyor dam berishni aytib bering va amalda ko'rsatib bering.

4- guruh uchun topshiriq:

Sovqotganda va sovuq urganda qanday birinchiyordam berilishini aytib bering va amalda ko'rsatib bering.

O'quvchilarning ma'ruzasi tugagandan so'ng savol javoblar o'tkaziladi.

V. O'quvchilarning o'zlashtirishlarini test savol topshiriqlari yordamida aniqlash va ularni baholash

1. Teri shikastlanishining qaysi turida teriga ikki qavat bint yoki doka yopib, uning ustidan issiq jun ro'mol bilan bog'lanadi?

A) teriga kislota to'kilganda

B) 1- darajali kuyganda

D) 3-4- darajali sovuq urganda

E) 2- darajali kuyganda va sovuq

urganda

2. Terining 1- darajali sovuq urishida qanday belgilar yuzaga keladi?

A) terida pufakchalar hosil bo'ladi

B) teri qorayadi

D) teri qorayadi va sezuvchanlik yo'qoladi

E) teri oqaradi va ko'karadi,

shishadi.

3. Teri shikastlanishining qaysi turida odamning rangi oqaradi, lablari, barmoqlari ko'karadi, tana harorati pasayadi?

A) sovqotganda

B) 1-darajali sovuq urganda

D) 2- darajali sovuq urganda

E) 3- va 4- darajali sovuq urganda

4. Teri 2-darajali kuyganda qanday belgiyuzaga keladi?

A) qizaradi

B) qorayadi

D) pufakchalar hosil bo'ladi

E) ko'karadi

5. Yosh bolalardagi issiq urish belgilari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) tana harorati ko'tariladi, tirishadi

B) tirishadi, hushidan ketadi

D) terisi qiziydi, ko'p terlaydi

E) A,B

VI. Mavzuni hulosalash va o'quvchilarni baholash.

	Guruh	O'quvchi-larni soni	Baholar			O'zkashtirish sifati
			5	4	3	
1 – guruh	205	6	3	4	2	
2 – guruh	205	6	2	3	1	
3 – guruh	205	6	2	1	2	
4 - guruh	205	6	1	2	1	





№	Familiyasi, simi	Baholash
1	Nosirov A.	4
2	Xo'jayev I.	5
3	Rustamova D.	3
4	Muhitdinov S.	4
5	Yunusova M.	5
6	Raximova G.	4
7	Turdiyev E.	3
8	Ergasheva A.	5
9	Mavlonova M.	3
10	Sultonova M.	4
11	Abdunazarov F.	5
12	Akramova G.	3
13	Muqimova M	4
14	Shavkatova A	5
15	Ibragimova N.	5
16	Jalilov J.	4
17	Qodirov F.	4
18	Qurolboyeva U.	3
19	Qaxxorova D.	5
20	Shermanov B.	4
21	Azizov X.	3
22	Shukurova N.	5
23	Mirzayev Sh.	4
24	G'ulomova L.	4

VII. Uyga vazifa berish.

Mavzuga oid rasmlar to'plash, konspekt yozish

XULOSA

Biologiya fanidan “teri shikastlanganda birinchiyordam berish” mavzusini o’qitishda O’zbekistonda uzliksiz ta’lim tizmini tashkil etilishining ilmiy- nazariy asoslari bo’lgan “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tizimi oldiga qoygan vazifalarini bajargan holda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va dars o’tishdir. Men muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalandim.

Yangi pedagogik texnologiyani biologiyani o’qitishdagi samarasini pedagogik eksperiment natijalardan ma’lum bo’ldiki bunda “5” va “4” baho olgan o’quvchilar soni ko’paygan . Yana shuni aytish kerakki, o’quvchilar o’zlari qiziqtirgan va jamoa uchun ma’suliyati shakllanishiga erishildi.

O’quvchilar dars davomida o’qituvchi bilan obekt- subekt munosabatida emas teng huquqli subekt-subekt munosabatda bo’ldi.

Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o’tganda, o’quvchilar darsga tayyor holda keladi, o’zlashtirish qobiliyati shakllanadi va fanga bo’lgan qiziqishi ortadi.

O’quvchilar dars davomida ko’rgazmali vositalardan, multimedialardan foydalanib dars o’tiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish – Prezidentimiz I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
Xalq so'zi 2010 yil 30- yanvar
2. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir.
- Prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatosi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi
Xalq so'zi 2010 yil 28 – yanvar
3. I.A.Karimov “O'zbekiston XXI – asrga intilmoqda” Oliy Majlisning 1-chaqiriq sessiyasidagi ma'ruzasi 1999 yil 14- aprel T“O'zbekiston” 1999 – 48bet
4. I.A.Karimov “Barkamol avlod o'zbekiston taraqqiyotining poydevori” T “Sharq” nashriyoti matbaa konserni 1997 yil
5. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” T “ma'naviyat” 2008 yil
6. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” 1998 yil
7. I.A.Karimov “O'zbekiston buyuk kelajak sari” “O'zbekiston” 1998 yil
8. I.A.Karimov “O'zbekiston XXI – asr bo'sag'asida” “O'zbekiston ” 1997 yil
9. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun “Barkamol avlod o'zbekiston taraqqiyotining poydevori” T “sharq” nashriyoti 1997 yil 45 bet
10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” “Sharq” 1997 yil 18 bet
11. Milliy istiqlool g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari “O'zbekiston” 1997 yil 17 bet.
12. Umumiy o'rta ta'limning davolash ta'lim standarti va o'quv dasturi. T “Sharq ” nashriyoti 1999 yil
13. J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” 1,2 qismlar 2005 yil
14. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov “Biologiya ta'lim texnologiyalari” “O'qituvchi” 2002 yil
15. J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish” 2004 yil
16. J.O.Tolipova “Biologiya darslarida o'qitish texnologiyasidan foydalanish” 2001 yil 5- son
17. J.O.Tolipova, N. Naimova “Ta'limtarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar ” xalq ta'limi 2002 yil 3- son
18. A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova “Umumiy biologiyani o'qitishning norasmiy usul va shakllari” T 1990 yil
19. A.Qodirov, Q.Xaydarov “Biologiya o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'uloti” “O'qituvchi” 1989 yil

- 20.A.S.Beshimov “Odam va uning salomatlig fanini o’qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” metodik qo’llanma “Istiqlol” 2008 yil
- 21.J.O.Tolipova, A.T.G’ofurov “Biologiya o’qitish metodikasi” metodik qo’llanma akademik litsey va kasb – hunar kolejlari uchun 2004 yil
- 22.Bahodir Aminov , Turob tolipov 8- sinflar uchun “Odam va uning salomatligi” “ibn Sino” 2001 yil
- 23.N.K.Axmedov “Normal va patalogik anatomiya” 1990 yil
- 24.Z. Malikov “Anatomiya” 2012 yil
- 25.N.K.Axmedov “Odam anatomiyasi atlas” T. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil
- 26.N.K.Axmedov “Normal anatomiya, fiziologiya va patalogiya” darslik. T. 1996 yil.
- 27.www.tdpu.uz – TDPU ning sayti
- 28.www.pedagog.uz – o’qituvchilar sayti
- 29.www.ziynet.uz
- 30.www.google.ru
- 31.www.bing.com

Nizomiy nomidagi TDPU tabiyot
fanlarifakulteti biologiya va I.H.F.M.
yo'nalishi bitiruvchisi Seytbekova
Azizaning "Teri kasalliklari va uni oldini
olish profilaktik qoidalari"
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

Seytbekova Azizaning "Teri kasalliklari va uni oldini olish profilaktik qoidalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi 39 betdan iborat bo'lib kirish, adabiyotlar taxlili, terining tuzilishi va funksiyasi, Teri kasalliklarining kelib chiqish sabablarining kelib chiqish sabablari, teri kasalliklarining turlari, teri kasalliklarini oldini olish choralari va davosi, uni o'qitish metodikasi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ikkita jadval, sakkizta rangli rasm, gazeta va internet ma'lumotlari keltirilgan. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, obekti va predmeti hamda ta'lim tizimidagi roli aniq yoritib berilgan. Teri kasalliklari to'g'risida ma'lumot berilganda uning kelib chiqish sabablari, turlari, belgilari, oldini olish va davolash haqida to'liq ma'lumotlar yoritilgan. Asosiy qismida esa mavzuning litsey o'quvchilariga muammoli ta'lim texnologiyasi asosida yoritib berilganligi ko'rsatilgan. Olib borilgan tajriba natijasi an'anaviy ta'lim texnologiyasi va muammoli ta'limi texnologiyasi bo'yicha o'tilgan darslar taqqoslangan. Yana bu bo'limda pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalari va test topshiriqlari tuzilgan. BMI yakunida xulosa va adabiyotlar ro'yxati berilgan. BMI qo'yilgan talablarga javob beradi. Bitiruvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan. Bitiruv malakaviy ishdagi ma'lumotlardan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bitiruv malakaviy ish zamon talablariga javob beradi. Himoyaga tavsiya etaman va davlat atestatsiyasi a'zolaridan yuqori baholashlarini so'rayman.

Taqrizchi:

**Biologiya o'qitish metodikasi kafedrasini
katta o'qituvchisi**

Azimov I.